


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 698,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 147,0 mln. AQSh dollariga yoki 26,6 %ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI VA  
BALANSI  
(yanvar-may  
mln. AQSh  
dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

SAMARQAND  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO'LGAN  
DAVLATLAR  
(2021 - yil  
yanvar- may,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
%da)

TSA da eksport hajmi 175,8 mln. AQSh dollariga (44,2 %ga ko'paydi) va import hajmi 522,8 mln. AQSh dollariga (21,7 %ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -347,0 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar        | TSA   | Eksport | Import | Ulushi,<br>% da |
|-------------------------|-------|---------|--------|-----------------|
| Rossiya Federatsiyasi   | 117,0 | 39,5    | 77,5   | 16,7            |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 106,8 | 21,4    | 85,3   | 15,3            |
| Qozog'iston             | 73,8  | 14,0    | 59,8   | 10,6            |
| Turkiya                 | 63,6  | 17,6    | 46,1   | 9,1             |
| Yaponiya                | 38,6  | 0,0     | 38,6   | 5,5             |
| Ukraina                 | 27,5  | 4,7     | 22,7   | 3,9             |
| Tojikiston              | 23,1  | 21,3    | 1,7    | 3,3             |
| Germaniya               | 18,9  | 0,8     | 18,1   | 2,7             |
| Sloveniya               | 17,8  | 0,0     | 17,8   | 2,6             |
| Hindiston               | 13,7  | 0,1     | 13,6   | 2,0             |

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 83 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (16,7 %), Xitoy Xalq Respublikasida (15,3 %), Qozog'istonda (10,6 %), Turkiyada (9,1 %), Yaponiyada (5,5 %), Ukrainada (3,9 %) va Tojikistonda (3,3 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 6 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (19,6 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (11,4 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (9,8 mln. AQSh dollari), Singapur (6,9 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (6,7 mln. AQSh dollari) Italia (0,6 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 24 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
2DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar- may,  
mln. AQSh  
dollari)**


| Davlatlar                      | 2019- y.     | 2020- y.     | 2021- y.     |
|--------------------------------|--------------|--------------|--------------|
| <b>Rossiya Federatsiyasi</b>   | <b>107,3</b> | <b>87,7</b>  | <b>117,0</b> |
| Eksport                        | 39,2         | 24,5         | 39,5         |
| Import                         | 68,0         | 63,2         | 77,5         |
| Saldo                          | -28,8        | -38,8        | -38,1        |
| <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> | <b>122,1</b> | <b>108,7</b> | <b>106,8</b> |
| Eksport                        | 8,7          | 9,2          | 21,4         |
| Import                         | 113,4        | 99,5         | 85,3         |
| Saldo                          | -104,6       | -90,4        | -63,9        |
| <b>Qozog'iston</b>             | <b>77,4</b>  | <b>58,5</b>  | <b>73,8</b>  |
| Eksport                        | 16,6         | 19,1         | 14,0         |
| Import                         | 60,7         | 39,4         | 59,8         |
| Saldo                          | -44,1        | -20,3        | -45,8        |
| <b>Turkiya</b>                 | <b>78,4</b>  | <b>50,5</b>  | <b>63,6</b>  |
| Eksport                        | 13,6         | 11,8         | 17,6         |
| Import                         | 64,9         | 38,7         | 46,1         |
| Saldo                          | -51,3        | -26,9        | -28,5        |
| <b>Yaponiya</b>                | <b>30,2</b>  | <b>37,2</b>  | <b>38,6</b>  |
| Eksport                        | 0,5          | 0,1          | 0,0          |
| Import                         | 29,7         | 37,1         | 38,6         |
| Saldo                          | -29,2        | -37,0        | -38,5        |
| <b>Ukraina</b>                 | <b>10,9</b>  | <b>11,7</b>  | <b>27,5</b>  |
| Eksport                        | 4,2          | 2,6          | 4,7          |
| Import                         | 6,7          | 9,1          | 22,7         |
| Saldo                          | -2,4         | -6,5         | -18,0        |
| <b>Tojikiston</b>              | <b>5,7</b>   | <b>12,8</b>  | <b>23,1</b>  |
| Eksport                        | 4,8          | 12,2         | 21,3         |
| Import                         | 0,9          | 0,6          | 1,7          |
| Saldo                          | 3,8          | 11,7         | 19,6         |

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar- may,  
mln. AQSh  
dollari)

| Davlatlar                   | 2019- y.    | 2020- y.    | 2021- y.    |
|-----------------------------|-------------|-------------|-------------|
| <b>Germaniya</b>            | <b>38,6</b> | <b>11,7</b> | <b>18,9</b> |
| Eksport                     | 1,3         | 0,6         | 0,8         |
| Import                      | 37,3        | 11,1        | 18,1        |
| Saldo                       | -36,0       | -10,4       | -17,4       |
| <b>Sloveniya</b>            | <b>5,9</b>  | <b>13,9</b> | <b>17,8</b> |
| Eksport                     | 0,0         | 0,0         | 0,0         |
| Import                      | 5,9         | 13,9        | 17,8        |
| Saldo                       | -5,9        | -13,9       | -17,8       |
| <b>Hindiston</b>            | <b>9,4</b>  | <b>6,2</b>  | <b>13,7</b> |
| Eksport                     | 0,1         | 0,2         | 0,1         |
| Import                      | 9,3         | 6,0         | 13,6        |
| Saldo                       | -9,3        | -5,8        | -13,5       |
| <b>Vengrya</b>              | <b>4,0</b>  | <b>10,8</b> | <b>12,8</b> |
| Eksport                     | 0,2         | 0,1         | 0,1         |
| Import                      | 3,9         | 10,7        | 12,8        |
| Saldo                       | -3,7        | -10,6       | -12,7       |
| <b>Qirg'iz Respublikasi</b> | <b>4,6</b>  | <b>8,3</b>  | <b>12,3</b> |
| Eksport                     | 4,2         | 7,2         | 11,8        |
| Import                      | 0,4         | 1,1         | 0,4         |
| Saldo                       | 3,7         | 6,1         | 11,4        |
| <b>Eron</b>                 | <b>13,5</b> | <b>9,4</b>  | <b>11,3</b> |
| Eksport                     | 5,7         | 1,0         | 1,6         |
| Import                      | 7,8         | 8,5         | 9,8         |
| Saldo                       | -2,1        | -7,5        | -8,2        |
| <b>Latviya</b>              | <b>23,4</b> | <b>12,6</b> | <b>11,0</b> |
| Eksport                     | 0,9         | 0,4         | 0,4         |
| Import                      | 22,4        | 12,1        | 10,7        |
| Saldo                       | -21,5       | -11,7       | -10,3       |

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-may oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,0 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilning yanvar-mayiga nisbatan ulushi 4,0 % ga oshgan.

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar- may, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



Aksincha boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi esa 2021- yil yanvar-may oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 4,0 %ga kamaydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,0 %ni tashkil etdi.

SAMARQAND  
VILOYATI  
SHAXAR VA  
TUMANLARNING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
(2021- yil  
yanvar- may,  
mln. AQSH  
dollari,  
ulushi, %da)


| Shahar va tumanlar | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport      | Import       | Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %da |
|--------------------|------------------------|--------------|--------------|------------------------------------|
| <b>Jami</b>        | <b>698,6</b>           | <b>175,8</b> | <b>522,8</b> | <b>100,0</b>                       |
| Samarqand sh.      | 336,7                  | 54,9         | 281,8        | 48,2                               |
| Kattaqo'rg'on sh.  | 10,7                   | 3,7          | 7,0          | 1,5                                |
| <i>Tumanlar:</i>   |                        |              |              |                                    |
| Bulung'ur          | 7,6                    | 4,9          | 2,7          | 1,1                                |
| Jomboy             | 65,9                   | 17,2         | 48,7         | 9,4                                |
| Ishtixon           | 4,8                    | 2,6          | 2,2          | 0,7                                |
| Kattaqo'rg'on      | 10,4                   | 6,1          | 4,3          | 1,5                                |
| Narpay             | 8,5                    | 6,7          | 1,8          | 1,2                                |
| Nurobod            | 15,7                   | 0,2          | 15,5         | 2,2                                |
| Oqdaryo            | 15,3                   | 7,0          | 8,3          | 2,2                                |
| Payariq            | 6,2                    | 4,2          | 2,0          | 0,9                                |
| Pastdarg'om        | 18,8                   | 7,1          | 11,7         | 2,7                                |
| Paxtachi           | 12,8                   | 5,5          | 7,3          | 1,8                                |
| Samarqand          | 69,5                   | 22,4         | 47,1         | 10,0                               |
| Toyloq             | 49,6                   | 6,3          | 43,3         | 7,1                                |
| Urgut              | 61,3                   | 23,8         | 37,4         | 8,8                                |
| Qo'shrabot         | 1,8                    | 0,9          | 0,9          | 0,3                                |

Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (336,7 mln. AQSH dollari), hamda Samarqand tumani (69,5 mln. AQSH dollari), shuningdek, Jomboy (65,9 mln. AQSH dollari) Urgut (61,3 mln. AQSH dollari), va Toyloq (49,6 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.


## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlari soni 403 tani tashkil etib, ular tomonidan 175,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 44,2 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,3 %ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (33,7 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (29,8%), Mashinalar va transport asbob-uskunalari (10,6 %), turli xil tayyor buyumlar (10,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST  
BO'YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2021-yil  
yanvar-may,  
ulushi, %da)





| XSST tarkibi   | Mln. AQSh dollari |                |                  | Umumiy hajmga nisbatan, %da |                |              |
|--|-------------------|----------------|------------------|-----------------------------|----------------|--------------|
|  | Jami              | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami                        | MDH davlatlari |              |
| <b>Jami eksport</b>  | <b>175,8</b>      | <b>103,3</b>   | <b>72,5</b>      | <b>100,0</b>                | <b>100,0</b>   | <b>100,0</b> |
| shu jumladan:  |                   |                |                  |                             |                |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 59,3              | 41,1           | 18,2             | 33,7                        | 39,8           | 25,1         |
| Ichimliklar va tamaki  | 1,8               | 1,7            | 0,0              | 1,0                         | 1,7            | 0,0          |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 12,6              | 7,5            | 5,1              | 7,2                         | 7,3            | 7,0          |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 0,5               | 0,1            | 0,4              | 0,3                         | 0,1            | 0,5          |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0,1               | 0,0            | 0,0              | 0,0                         | 0,0            | 0,0          |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 7,5               | 4,7            | 2,8              | 4,2                         | 4,5            | 3,9          |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 52,4              | 21,0           | 31,4             | 29,8                        | 20,3           | 43,3         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar  | 18,7              | 7,0            | 11,8             | 10,6                        | 6,7            | 16,2         |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 18,1              | 16,6           | 1,5              | 10,3                        | 16,1           | 2,0          |
| Xizmatlar  | 4,8               | 3,5            | 1,3              | 2,7                         | 3,4            | 1,8          |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2021 - yil  
yanvar- may)**

| XSST tarkibi   | 2020- yilning yanvar-mayiga nisbatan,<br>%da |                |                  |
|--|--|----------------|------------------|
|  | Jami   | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| <b>Jami</b>  | <b>175,8</b>                                 | <b>103,3</b>   | <b>72,5</b>      |
| shu jumladan:  |  |                |                  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 59,3   | 41,1           | 18,2             |
| Ichimliklar va tamaki  | 1,8  | 1,7            | 0,0              |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 12,6   | 7,5            | 5,1              |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 0,5  | 0,1            | 0,4              |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0,1  | 0,0            | 0,0              |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 7,5  | 4,7            | 2,8              |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 52,4   | 21,0           | 31,4             |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   | 18,7   | 7,0            | 11,8             |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 18,1   | 16,6           | 1,5              |
| Xizmatlar  | 4,8  | 3,5            | 1,3              |

2021- yil yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar- mayiga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda, o'sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar- may,  
%da)**

| XSST tarkibi   | 2019- y.   | 2020- y.   | 2021- y.   |
|--|------------|------------|------------|
| <b>Jami</b>  | <b>100</b> | <b>100</b> | <b>100</b> |
| shu jumladan:  |            |            |            |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 53,2       | 47,4       | 33,7       |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,7        | 0,5        | 1,0        |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 5,0        | 4,2        | 7,2        |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 2,0        | 0,0        | 0,3        |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0,0        | 2,6        | 0,0        |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,7        | 1,0        | 4,2        |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 13,0       | 18,0       | 29,8       |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari   | 8,0        | 10,8       | 10,6       |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 8,4        | 12,0       | 10,3       |
| Xizmatlar  | 9,0        | 3,3        | 2,7        |


|   | XSST bo'limi nomi   | Mln. AQSh dollari                                 | 2020- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|--|
|   | <b>XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar- may)</b> | <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b> |  |
| Sabzavotlar va mevalar  |   | 40,8  | 90,0                                     |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)                             |   | 12,4  | 197,0                                    |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari  |   | 2,7   | 140,0                                    |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                       |   | 1,3   | 109,0                                    |
| Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan Tashqari                           |   | 1,3   | 135,6                                    |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |   |   |  |
| Ichimliklar   |   | 1,8   | 3,2 m.                                   |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari   |   | 0,0   | 0,0                                      |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>                                      |   |   |  |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   |   | 8,8   | 2,4 m.                                   |
| Moy olinadigan urug'lar va mevalar  |   | 3,4   | 2,3 m.                                   |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari                         |   | 0,2   | 83,0                                     |
| <b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>                      |   |   |  |
| O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)                      |   | 0,1   | 1,6                                      |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b> |   |   |  |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   |   | 5,4   | 47,0 m.                                  |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar                         |   | 0,8   | 2,1 m.                                   |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari  |   | 0,8   | 192,4                                    |
| Bo'yoqlar va bo'yovchi moddalar   |   | 0,3   | 3,5 m.                                   |

**XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2021 - yil  
yanvar- may)**

| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari                        |      |         |
|--|------|---------|
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar      | 43,9 | 2,5 m.  |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan         | 3,3  | 2,7 m.  |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar  | 2,3  | 119,4   |
| Po'lat va metal  | 1,7  | 44,1 m. |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   |      |         |
| Avtomobillar   | 16,2 | 134,5   |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar<br>Metallarni qayta ishlash mashinalari | 1,3  | 6,3 m.  |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari                      | 0,7  | 2,3 m.  |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari                             | 0,3  | 183,2   |
| Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar   | 0,2  | 45,2    |
| Turli xil tayyor buyumlar  |      |         |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari  | 12,8 | 128,8   |
| Poyabzal   | 4,9  | 135,4   |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan                                       | 0,2  | 83,3    |
| Xizmatlar  |      |         |
| Transport xizmatlari   | 3,7  | 131,2   |
| Moliyaviy xizmatlari   | 1,0  | 167,8   |
| Turistik xizmatlar   | 0,1  | 24,2    |

O'tgan yilga nisbatan MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yil yanvar-maydagi 63,0 %dan 2021- yil yanvar-mayda 58,8 %ga tushdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 41,2 %ni tashkil etdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar- may,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, %da)**



2021- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 22,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (12,2 %), Tojikiston (12,1 %), Turkiya (10,0 %), Qozo g'iston (8,0 %), Qirg'iz Respublikasi (6,7 %) va Afg'oniston (5,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 77,1 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 60 ta davlatdan 63 ta davlatga ko'paygan.

VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2021- yil  
yanvar- may,  
%da)



SAMARQAND  
VILOYATINING  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH  
SUR'ATLARI  
(yanvar- may)

| Davlatlar               | Min.AQSH dollari |          | O'zgarish sur'ati,<br>%da |          | O'rni    |          |
|-------------------------|------------------|----------|---------------------------|----------|----------|----------|
|                         | 2020- y.         | 2021- y. | 2020- y.                  | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Rossiya Federatsiyasi   | 24,5             | 39,5     | 62,4                      | 161,3    | 1        | 1        |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 9,2              | 21,4     | 104,9                     | 2,3 m.   | 5        | 2        |
| Tojikiston              | 12,2             | 21,3     | 2,6 m.                    | 174,2    | 3        | 3        |
| Turkiya                 | 11,8             | 17,6     | 87,3                      | 148,6    | 4        | 4        |
| Qozog'iston             | 19,1             | 14,0     | 114,9                     | 73,4     | 2        | 5        |
| Qirg'iz Respublikasi    | 7,2              | 11,8     | 173,5                     | 163,9    | 6        | 6        |
| Afg'oniston             | 5,3              | 9,9      | 60,5                      | 187,6    | 7        | 7        |
| Singapur                | 2,0              | 7,2      | 127,4                     | 3,6 m.   | 14       | 8        |
| Ozarbajjon              | 4,5              | 6,9      | 105,4                     | 154,2    | 8        | 9        |
| Ukraina                 | 2,6              | 4,7      | 62,3                      | 180,1    | 11       | 10       |
| Belarus Respublikasi    | 3,8              | 3,0      | 100,5                     | 79,8     | 9        | 11       |
| Italiya                 | 0,0              | 2,5      | -                         | 273,5 m. | 49       | 12       |
| BAA                     | 1,5              | 1,8      | 125,1                     | 116,4    | 16       | 13       |
| Eron                    | 1,0              | 1,6      | 17,2                      | 158,3    | 18       | 14       |
| Turkmaniston            | 2,6              | 1,4      | 105,2                     | 56,3     | 12       | 15       |
| AQSH                    | 1,4              | 1,3      | 100,4                     | 91,9     | 17       | 16       |
| Gruziya                 | 1,7              | 1,2      | 124,2                     | 67,8     | 15       | 17       |
| Polsha                  | 0,7              | 1,1      | 35,4                      | 149,0    | 20       | 18       |
| Iroq                    | 3,0              | 0,9      | 95,7                      | 31,4     | 10       | 19       |
| Saudiya Arabistoni      | 0,3              | 0,8      | 88,8                      | 2,4 m.   | 25       | 20       |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

| XSST tarkibi   | Rossiya Federatsiyasi |             | Xitoy Xalq Respublikasi |             | Tojikiston  |             | Turkiya     |             |
|--|-----------------------|-------------|-------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
|  | 2020- y.              | 2021- y.    | 2020- y.                | 2021- y.    | 2020- y.    | 2021- y.    | 2020- y.    | 2021- y.    |
| <b>Jami eksport</b>  | <b>24,5</b>           | <b>39,5</b> | <b>9,2</b>              | <b>21,4</b> | <b>12,2</b> | <b>21,3</b> | <b>11,8</b> | <b>17,6</b> |
| shu jumladan:  |                       |             |                         |             |             |             |             |             |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 9,8                   | 16,8        | 5,7                     | 5,5         | 8,2         | 15,0        | 4,7         | 3,6         |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,4                   | 0,3         | 0,0                     | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0         |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 1,0                   | 3,8         | 1,5                     | 1,5         | 0,0         | 0,1         | 0,1         | 1,7         |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 0,0                   | 0,1         | 0,0                     | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0         |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0,0                   | 0,0         | 0,0                     | 0,0         | 1,3         | 0,0         | 0,0         | 0,0         |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,0                   | 1,9         | 0,0                     | 0,0         | 0,4         | 0,8         | 0,0         | 2,1         |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 2,2                   | 3,8         | 2,0                     | 14,4        | 1,1         | 3,5         | 5,0         | 10,0        |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   | 0,1                   | 0,2         | 0,0                     | 0,0         | 0,5         | 0,9         | 1,6         | 0,0         |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 8,2                   | 9,4         | 0,0                     | 0,0         | 0,7         | 0,8         | 0,2         | 0,1         |
| Xizmatlar  | 2,8                   | 3,3         | 0,0                     | 0,0         | 0,0         | 0,1         | 0,4         | 0,2         |

**VILOYATNING  
AYRIM  
DAVLATLAR  
BILAN EKSPORT  
TARKIBI  
(2021- yil  
yanvar- may,  
mln. AQSh  
dollarida)**



**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 35,9 mln. AQSh dollar qiymatli 44,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 7,4 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 82,9 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 13,2 mln. AQSh dollariga teng 23,3 ming tonna sabzavot, shuningdek 8,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 7,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 20,4 %ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
(2021- yil  
yanvar- may,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (19,2 %), Xitoy xalq Respublikasi (12,9 %), Turkiya (9,3 %) va Ozarbayjon (3,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

| Davlatlar               | 2020- yil  |                   |               | 2021- yil  |                   |               |
|-------------------------|------------|-------------------|---------------|------------|-------------------|---------------|
|                         | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Rossiya Federatsiyasi   | 9,1        | 8,3               | 19,2          | 10,0       | 9,1               | 25,2          |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 6,6        | 5,6               | 12,9          | 7,9        | 5,6               | 15,7          |
| Turkiya                 | 3,4        | 4,0               | 9,3           | 3,3        | 3,5               | 9,9           |
| Ozarbayjon              | 1,4        | 1,7               | 3,8           | 2,7        | 2,8               | 7,8           |
| Belarus Respublikasi    | 3,8        | 3,6               | 8,2           | 3,1        | 2,2               | 6,2           |
| Ukraina                 | 2,8        | 2,2               | 5,0           | 3,1        | 2,2               | 6,1           |
| Qozog'iston             | 13,3       | 5,6               | 13,0          | 6,3        | 2,1               | 5,9           |
| Eron                    | 1,0        | 0,8               | 1,7           | 1,5        | 1,2               | 3,3           |
| BAA                     | 0,5        | 0,7               | 1,7           | 0,8        | 1,0               | 2,8           |
| AQSH                    | 0,5        | 1,2               | 2,8           | 0,3        | 0,9               | 2,6           |
| Iroq                    | 10,7       | 2,3               | 5,4           | 1,0        | 0,8               | 2,3           |
| Gruziya                 | 2,0        | 1,6               | 3,6           | 1,0        | 0,7               | 2,1           |
| Germaniya               | 0,2        | 0,6               | 1,4           | 0,2        | 0,7               | 1,9           |
| Turkmaniston            | 6,2        | 1,5               | 3,4           | 1,1        | 0,6               | 1,7           |
